



2018 yil yanvar-may oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1488,6 mlrd.so'mni**, o'sish **6,1 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **106,3 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **27,0 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **35,6 %**

2018 yilning yanvar-may oylariida viloyat korxonalari tomonidan 1488,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,1 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoati korxonalarininigi ulushiga to'g'ri keladi (55,1 foiz). Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash sanoati xam munosib xissa qo'shdi (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 43,5 foiz).

2018 yil yanvar- may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

2017 yil



2018 yil



- Tog` kon sanoati va ochiq konlarni ishslash
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elekt gaz bug` bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash
- Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizima chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Qayta ishlash sanoat

Qayta ishlash sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 820,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 55,1 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-may oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 647,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 43,5 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek 2017 yilning yanvar- may oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmokda: va teri mahsulotlar ishlab chiqarish 49,4 % ga, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish 33,7 % ga hamda tog` kon sanoati 32,8 % ga oshganligi kuzatildi.




***Yanvar- may oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

	2017 yil	2018 yil	2017 yil yanvar- mayiga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	5,4	6,0	110,7
Paxta tolasi, ming tonna	29,5	27,1	91,8
Aroq – mig litr 100 % spirt	468,6	400,5	85,5
Elektr energiyasi, mlrd kvt/s	11,1	9,9	89,1
Paxta urug'l, ming tonna	47,5	43,0	90,5
Kalava ip, tonna	2097,8	1887,1	90,0
Sellyuloza, ming kg 90%	878,0	238,4	27,1
Un, ming tonna	14,6	15,2	103,6
Kunjara, ming tonna	24,7	27,7	112,1

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 401,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-may oyiga nisbatan 6,3 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 27,0 % ni tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar- may oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish
hajmi va o'sish sur'atlari**



2017 yilning yanvar- may oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 36,6 % dan 2018 yilning yanvar-may oyida 40,3 % ga oshishi kuzatilmoqda.


**Yanvar- may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,
% da**



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 614,1 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 41,3 % ulushini), Sirdaryo tumani 262,7 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 17,6 % ulushini), Guliston shahri 162,8 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 10,9 % ulushini), Boyovut 89,6 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,0 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar- may oyida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Shu bilan birga eng kam ulush Guliston tumani 34,4 mlrd so`m (2,3 %), Mirzaobod tumani 42,3 mlrd so`m (2,8 %) va Xovos tumani 41,6 mlrd so`m (2,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar- may oylarida hududlarda axoli jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1821,9 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 33197,0 ming so'm, Sirdaryo tumanida 2120,2 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar- may oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda



Tuman va shahrlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Boyovut tumanida 129,7 %, Sayhunobod tumanida 115,5% va Xovos tumanida 112,6 %. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayshi Guliston shahrida 100,4%, Sirdaryo tumanida 101,6 %, Mirzaobod tumanida 97,8% va Guliston tumanida 69,6% ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2018 yil yanvar-may oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 529,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 35,6 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 106,1 foizni tashkil qilgan.



2018 yil yanvar- mayida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati

